



## MUTAXASSISLIK HAMDA IXTISOSLIK DARSLARIDA TALABALAR KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK JARAYON

**Muallif:** Namozova Dilorom Tursunovna<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** FarDU dotsenti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14438315>

### ANNOTATSIYA

Mutaxassislik hamda ixtisoslik darslarida talabalar kreativ kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayoni muhokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativ, komponent, jarayon, pedagogika, yo'naltirilgan, shakllantirish, talaba, faoliyat, kasbiy.

Bo`lajak musiqa madaniyati o`qituvchisining kreativ kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayoni mazmunida pedagogik mahorat o`ta muhim bo`lib u o`z ichiga musiqiy pedagogik ijodkorlikni, o`quv tarbiyaviy vaziyatlar va muammolarni yechishga qobiliyatli bo`lishi, pedagogik texnologiya hamda innovatsion ta`limda kasbiy kompetentlik va kreativlik haqida tushunchaga ega bo`lishi kabi sifatkarni shakllantirishni qamrab oladi.

Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo`lgan musiqa o`qituvchisining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat. Chunki, bilim dargohi musiqa rahbari oldiga uning kasb malakasiga va shaxsiy hislatlariga nisbatan yuqori talablar qo`ymoqda. Har qanday pedagogik kasbi murakkab va serqirra jarayondir. Shuning uchun bu kasb qaysi sohaga tegishli bo`lmasin, bo`lajak musiqa o`qituvchisi oldiga ko`pgina talablarni qo`yadi. Ta'lim – tarbiyaning barcha sohalarining maqsadi barkamol shaxs tarbiyalashdir. Lekin bu borada ta'lim muassasalarida estetik turkumga kirvchi fanlar – musiqa, tasviriy va amaliy san'at, adabiyot va ularning o`zaro aloqadorligi asosiy rolni o`ynaydi. Jumladan, ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari, musiqa o`qituvchilari ham maxsus bilimlar, ko`nikma va malakalar, pedagogik qobiliyat hamda pedagogik mahoratga ega bo`lishlari lozim. Ma'lumki, musiqa mashg'ulotlari to`rtta musiqiy jarayonni o`z ichiga oladi:

O`qituvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi. Talabalarga ta'lim va tarbiya berish, o`quv-metodik ishlarni olib borish, tashkiliy ishlarda ishtirok etish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish o`qituvchi faoliyatining asosiy tomonlari hisoblanadi. Talabalarga bilim berish pedagog faoliyatida muhim o`rinni egallaydi. Zamon talabiga mos keladigan bilim tizimini talabaga yetkazish, bilim olishga ularni qiziqtirish, bilimlarni o`zlashtirishda talabaning faolligiga erishish hozirgi kundagi mutahassislik va ixtisoslik fanlarining pedagogik jarayonida talab etilmoqda.

Musiqiy uquv jarayoni juda murakkabdir. Musiqiy bilimlarning cheki yo`q. Mutahassislik fanlarida talaba va o`qituvchining pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanib, ularga quyidagilarni o`z ichiga qamrab oladi:

- bo`lajak musiqa o`qituvchilarining dars davomida befarq bo`lmaslikka, ijodiy faoliyat orqali ixtisoslik fanini puxta o`zlashturushiga, ijod etish va izlanishga, mustaqil fikrlashga majbur etishi;

- talabalarni mutahassislik fanlari o`quv jarayonida bilimga bo`lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo`lishini ta`minlashi;

- talabani ixtisoslik fanlarida bilimga bo`lgan qiziqishini mustaqil ravishda ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- ustoz va talabani hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Mutaxassislik hamda ixtisoslik darslarida talabalar kreativ kompetentligini shakllantirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayonda o`qituvchi va talabani maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim film, taraqqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo`lar, bular pedagogik jarayonni tashkil etishga bog`liq.

O`qituvchi bilan bir qatorda o`qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitini, talabani imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoldiyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafotlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta`limning markaziga olib chiqish kerak.

O`qituvchi tomonidan har bir mutahassislik darsni yaxlit holatda ko`ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o`qituvchiga u tomonidan bo`lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o`qituvchi mutahassislik fanlari qatori pedagogika, psixologiya, xususiy metodika va axborot texnologiyalardan xabardor bo`lishi zarur hisoblanadi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo`lishi avvaldan puxta o`ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog`liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko`rinishda yoki shaklda tuzish, bu o`qituvchining tajribasi, qo`ygan maqsadi va ixtiyoriga bog`liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo`lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo`lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to`liq o`z ifodasini topgan bo`lishi kerak. Texnologik kartani tuzilishi o`qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday kartada dars jarayonining barcha qirralari o`z aksini topadi.

O`qituvchi tomonidan o`zi o`qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg`uloti bo`yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fanni, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga ( bir semestr, bir o`quv yili bo`yicha), yaxlit o`quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan

natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik kartani talabning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishiga o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O'qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni ijrochilik mahoratlarini oshirishga, mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, mutahassislik fanlari va ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga; eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

Kasbiy faoliyatda bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni ham taqazo etadi. Biz ulardan ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz. "Musika o'qitish texnologiyalari va loyihalash" o'quv qo'llanmasida atroflicha tushuncha beramiz. Ushbu o'quv qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda ixtisoslik, ijro mahoratini rivojlantirish, mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, kognitiv, kommunikativ mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bu jarayonga talabning hayotiy tajribasi, mavjud bilimlari, bayon etilayotgan bilimlar tizimiga, fanga o'qishga munosabati ta'sir etadi. Bu sohada talabalarining imkoniyati bir xil bo'lmaydi. Keng bilimga, boy hayotiy tajribaga ega, o'qish ko'nikmalarini o'zlashtirgan talabalar o'qishda muvaffaqiyat bilan ishlaydi. Bilimlarni o'zlashtirishga talabning avval o'zlashtirgan ta'limiy ko'nikma va malakalari ta'sir etadi. Psixologlarning ko'rsatishicha bilimlarni o'zlashtirish, bu yangi qabul etilayotgan informatsiyani talabada avval mavjud bo'lgan informatsiyalar tizimiga kiritishdir. Talabada bilimlar qanchalik keng bo'lsa, yangi informatsiyani qabul etishi oson bo'ladi.

Yana shunga e'tibor berish kerakki, o'qituvchi talabadagi yangi o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni tiklashi, mavzuni o'zlashtirishi uchun asos hosil qilishi zarur. Ayniqsa, yangi mavzuni boshlaganda talabalarni qiziqtiradigan savol qo'yilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi qiziqishni kuchaytiradi. O'qituvchi talabaga ta'lim berishda maksimal foyda keltiradigan ish usullarini qo'llashi kerak.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda talabning bilish jarayoni sezish, idrok, xotira, tafakkur va hayolni o'z ichiga oladi. Sezish va idrok bilimning dastlabki, eng oddiy bosqichi hisoblanadi. Sezishda tashqi dunyo ta'surotlarining xususiyatlari bosh miyada alohida, alohida aks ettiriladi. Idrokda shu taassurotning yaxlit obrazi bosh miyada hosil bo'ladi.

Idrok sezgiga nisbatan murakkab aks ettirish bosqichi bo'lib, unda odamning yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, nutqi, idrok ob'ektiga munosabati, ruhiy holati va boshqalar ta'sir etadi. Sezgi va idrok asosida odamning ichki dunyosi shakllanib boradi.

Xotira shu sezilgan va idrok etilgan ta'surotlarni bosh miyada saqlab qolishini ta'minlaydi. Tashqi dunyo ta'surotlarini inson ongiga o'rnashishi, saqlanishi va keyinchalik qayta tiklanishi xotira hisoblanadi. Xotiraning har bir bosqichiga ta'lim jarayonida katta e'tibor berish kerak. Asosiy e'tiborni esda olib qolish bosqichiga qaratish foydalidir. Chunki, yaxshi esda olib qolingani ta'surot esda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Masalan: har bir shaxs hayotida muhim sanalarni-tug'ilgan kunlar, maktabga birinchi

borilgan kun, farzand tug'ilishi, mukofot olish va boshqalar doimo aniq eslanadi. Chunki , bunday tantanali (ayrim qayg'uli kunlar) inson shaxsiga kuchli ta'sir etadi va xotiraga qattiq o'rnashib qoladi.

Xotiraning bu xususiyatidan ta'lim jarayonida foydalanish kerak. O'quvchiga yetkazilayotgan materialning hayotiy, ilmiy ahamiyati tushuntirilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi, materialni ta'sirchan usullaridan foydalanib o'tilishiga e'tibor berish zarur.

Uzoq vaqt ta'lim jarayonida xotiraga asoslanib bilim berib kelindi. Bunday o'qitishni an'anaviy o'qitish deyilmoqda.

O'qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni ijrochilik mahoratlarini oshishiga, mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, mutahassislik fanlari va ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga; eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

O'zbekiston Pespublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.

O'zbekiston Pecpublikasining 2020 yil 23 sentabpdagi “Ta'lim to'g'ricida”gi O'PQ-637-con Qonuni / “Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-con.

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya” fan dastupi. – Toshkent, 2018. – 13 b.

Bolshoy psixologicheckiy clovar. – M.: Ppayl-YeVPOZNAK. Pod ped. B.G.Meshepyakova, akad. V.P.Zinchenko. 2003. – 92 c.

